IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, ҳужжат коди: KF74145931

# SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI DIREKTORINING BUYRUG'I

**Pedagogik markaz Ilmiy-metodik kengashining 2025-yil 11-yanvardagi navbatdan tashqari 1-sonli yig'ilish qarorlarini ijroga yo'naltirish to'g'risida**

Pedagogik markaz Ilmiy-metodik kengashining 2025-yil 11-yanvardagi navbatdan tashqari 1-sonli yig'ilish qarorlarini ijroga yo'naltirish maqsadida buyuraman:

1. Pedagogik markaz Ilmiy-metodik kengashining 2025-yil 11-yanvardagi navbatdan tashqari 1-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Pedagogik markaz Ilmiy-metodik kengashi qarorida belgilangan topshiriqlarning ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash belgilangan mas'ullar tomonidan amalga oshirilsin.

3. Mas'ullar tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni 10 kun muddatda Ilmiy-metodik kengash kotibi (D.Yunusova)ga taqdim etilsin.

4. Ilmiy-metodik kengash qarori ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni umumlashtirib, ijrosining monitoringini yuritish Ilmiy-metodik kengash kotibi (D.Yunusova)ga yuklatilsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Direktor** **A.Ibragimov**

Samarqand sh.
11 yanvar 2025 yil.
**4-son**

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 11-yanvarda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

**Q A R O R I**

*2025-yil 11-yanvar* *1/1-son*

*Samarqand shahri*

**Pedagogik markaz, kafedra va bo'limlarning yillik ish rejalari, kafedra professor-o'qituvchilarining o'quv yuklama va shaxsiy ish rejalari, ayrim yo'nalishlar bo'yicha ishchi o'quv reja hamda dasturlarni tasdiqlash to'g'risida**

Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodovning "Pedagogik markaz, kafedra va bo'limlarning yillik ish rejalari, kafedra professor-o'qituvchilarining o'quv yuklama va shaxsiy ish rejalari, ayrim yo'nalishlar bo'yicha ishchi o'quv reja hamda dasturlarni tasdiqlash to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodov so'zga chiqdi: – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish kurslari o'quv reja va dasturlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 402-sonli buyrug'i tasdiqlangan, ushbu buyruqqa binoan 2025-yil davomidan malaka oshirish kontingentidan kelib chiqqan holda, Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi kafedralarining o'quv yuklama va taqsimotlari taqsimlab chiqildi. Shuningdek, markaz kafedralarinig o'quv yuklamalari quyidagicha: Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi - 7870 soat, Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi - 8446 soat, Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi - 8652 soat, Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi 5568- soat, Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi – 9348 soat etib belgilandi.

**2025-yil malaka oshirish rejasi**

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi 2025 yilda malaka oshirishi rejalashtirilgan Guruhlar soni**

| | MALAKA OSHIRISH YO'NALISHLARI | Yanvar | Fevral | Mart | Aprel | May | Iyun | Sentyabr | Oktyabr | Noyabr | Dekabr | Guruhlar soni |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari | 1 | 1 | 1 | 2 | 1 | 1 | 1 | 2 | 2 | 1 | **13** |
| 2 | Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari | 1 | 1 | 2 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 1 | **12** |
| 3 | O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari (Ona tili va adabiyoti) | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 4 | **31** |
| 4 | Rus tili va adabiyoti (rus sinflarda) o'qituvchilari | | | | | | | | | | 1 | **1** |
| 5 | Tojik tili va adabiyoti óqituvchilari | | 1 | | | | | | | | | **1** |
| 6 | Ingliz tili o'qituvchilari | 2 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 2 | 2 | **27** |
| 7 | Rus tili (o'zbek va qardosh tillardagi sinflarda) o'qituvchilari | 2 | 2 | 3 | 3 | 3 | 2 | 2 | 3 | 3 | 2 | **25** |
| 8 | Davlat (o'zbek) tili o'qituvchilari | | 1 | | | | | | | 1 | | **2** |
| 9 | Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (o'zbek sinflarda) | 7 | 7 | 7 | 7 | 7 | 7 | 7 | 7 | 8 | 7 | **71** |
| 10 | Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (rus sinflarda) | 1 | | 1 | | 1 | 1 | | | 1 | | **5** |
| 11 | Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (tojik sinflarda) | | | | 1 | | | | | | | **1** |
| 12 | Kimyo o'qituvchilari | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 1 | **11** |

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 28 | Logoped | 1 | 0 | 35 | | | | | | | | | | | | | | 35 | | | | | | | 0 | 35 |
| 29 | "Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar uchun | 1 | 0 | 13 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | 13 | 0 | 13 |
| 30 | Maxsus maktab internatlari tarbiyachilari | 2 | 0 | 64 | | | | | | | | | | | | 32 | | 32 | | | | | | | 0 | 64 |
| 31 | Maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbari | 2 | 0 | 52 | | | | | | | | | | 26 | | | | 26 | | | | | | | 0 | 52 |
| 32 | Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari | 41 | 0 | 1211 | | 118 | | 119 | | 118 | | 119 | | 118 | | 118 | | 118 | | 147 | | 118 | | 118 | 0 | 1211 |
| | Jami | 411 | 3072 | 8626 | | 1122 | 493 | 678 | 524 | 634 | 232 | 953 | 341 | 829 | 310 | 867 | 430 | 714 | 267 | 920 | 449 | 778 | 26 | 1131 | 3072 | 8626 |

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish kurslari o'quv reja va dasturlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 402-sonli buyrug'ining 2-ilovasiga binoan ikki va undan ortiq malaka oshirish yo'nalishlari (ingliz tili, nemis tili, fransuz tili, tojik tili, boshlang'ich ta'lim rus tili va tojik tili) uchun tayanch sifatida tavsiya etilgan o'quv reja asosida yo'nalishlarining o'quv rejalari tuzildi. Ularni tasdiqlash uchun Kengash muhokamasiga tavsiya etaman.

**Kengash raisi A.Ibragimov** – ushbu masala bo'yicha savollar, fikrlar bo'lsa marhamat.

Ushbu masala atroflicha muhokama etilib markaz Kehgashi

## QAROR QILADI:

1. Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodovning "Pedagogik markaz, kafedra va bo'limlarning yillik ish rejalari, kafedra professor-o'qituvchilarining o'quv yuklama va shaxsiy ish rejalari, ayrim yo'nalishlar bo'yicha ishchi o'quv reja hamda dasturlarni tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Markaz, tarkibiy bo'lim va kafedralarining 2025-yil uchun ish rejalari tasdiqlansin.

3. Kafedra professor-o'qituvchilarining o'quv yuklama va shaxsiy ish rejalari taqsimot asosida tasdiqlansin.

4. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish shaklidagi uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining ilovaga muvofiq yo'nalishlari bo'yicha ishchi o'quv reja hamda dasturlari tabaqalashgan holda tasdiqlansin.

5. Markazning barcha kafedra mudiri va bo'lim boshliqlariga:

- Ilmiy-metodik kengashning ushbu qarorilarini kafedra va bo'limning navbatdagi yig'ilishida keng muhokama etish va chora-tadbirlarini belgilash;

- kafedra va bo'limlar faoliyatini tasdiqlangan ish reja asosida tashkil etish;

-kafedra va bo'limlarning 2025-yil uchun ishlab chiqilgan ish rejalarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash va hisobotlarni taqdim etish kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlari zimmasiga yuklatilsin.

6. Direktor o'rinbosarlari har chorak yakunida mazkur rejalarda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Kengashga axborot kiritsin.

7. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o'z zimmamga qoldiraman.

**Kengash raisi** **A.Ibragimov**
**Kengash kotibi** **D.Yunusova**

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 11-yanvarda o‘tkazilgan navbatdan tashqari yig‘ilishi**

**Q A R O R I**

*2025-yil 11-yanvar* *1/2-son*

*Samarqand shahri*

**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 18-dekabrdagi 404-sonli buyrug‘ining 4-bandiga ko‘rsatilgan tavsiya to‘g‘risida**

Markaz direktori A.Ibragimovning “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 18-dekabrdagi 404-sonli buyrug‘ining 4-bandiga ko‘rsatilgan tavsiya to‘g‘risida”gi ma’lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz direktori A.Ibragimov so‘zga chiqdi: – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 18-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini 2025-yil malaka oshirish kurslarida o‘qitish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 404-sonli buyrug‘ining 4-bandida maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi ta’lim tashkilotlarining rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarining malaka oshirish kurslari uchun o‘quv haftasining davomiyligini 2025-yil 1-yanvardan boshlab 5 kun etib belgilash tavsiya etilgan. Ushbu buyruqning 4-bandiga muvofiq 2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi ta’lim tashkilotlarining rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarining malaka oshirish kurslari uchun o‘quv haftasining davomiyligi 5 kun etib belgilanilishini Ilmiy-kengash a’zolari tomonidan ma’qullab berilishini so‘raymiz.

**Kengash raisi A.Ibragimov** – ushbu masala bo‘yicha savollar, fikrlar bo‘lsa marhamat.

Ushbu masala atroflicha muhokama etilib markaz Kehgashi

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. Markaz direktori A.Ibragimovning “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 18-dekabrdagi 404-sonli buyrug‘ining 4-bandiga ko‘rsatilgan tavsiya to‘g‘risida”gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 18-dekabrdagi 404-sonli buyrug‘ining 4-bandiga ko‘rsatilgan ma’lumot Ilmiy-kengash a’zolari tomonidan ma’qullanganligi inobatga olinsin.

3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 18-dekabrdagi 404-sonli buyrug‘ining 4-bandiga ko‘rsatilgan ma’lumot bo‘yicha o‘quv haftasining davomiyligi 5 kun etib belgilansin.

3. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash markazning Akademik faoliyat bo‘yicha direktor o‘rinbosari S.Murodov zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o‘z zimmamga qoldiraman.

**Kengash raisi** **A.Ibragimov**

**Kengash kotibi** **D.Yunusova**

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 11-yanvarda o‘tkazilgan navbatdan tashqari yig‘ilishi**

**Q A R O R I**

*2025-yil 11-yanvar* *1/3-son*

*Samarqand shahri*

**Markaz professor-xodimlari faoliyatining besh kunlik ish kuniga o‘tkazish to‘g‘risida**

Markaz kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi A.Usmonovning “Markaz professor-xodimlari faoliyatining besh kunlik ish kuniga o‘tkazish to‘g‘risida”gi ma’lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi A.Usmonov so‘zga chiqdi: – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 18-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini 2025-yil malaka oshirish kurslarida o‘qitish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 404-sonli buyrug‘ining 4-bandi hamda kelib tushgan takliflarga muvofiq 2025-yil 6-yanvarda Markaz Kasaba uyushmasi raisi va pedagog-xodimlar bilan birgalikda 6 kunlik ish kunidan 5 kunlik ish kuniga o‘tish bo‘yicha yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldan kuchga kirgan yangi tahrirdagi “Mehnat kodeksi”da yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar va ular bilan bevosita bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy prinsiplari mustahkamlanganligi, jumladan, mehnat erkinligi har kimning mehnat qilishga bo‘lgan o‘z qobiliyatlarini tasarruf etish, ularni qonun bilan taqiqlanmagan har qanday shaklda amalga oshirish, mashg‘ulot turini, kasbni va mutaxassislikni, ish joyini hamda mehnat sharoitlarini erkin tanlash huquqini anglatishi haqida fikrlar keltirildi. Shuningdek, mehnat qonunchiligiga ko‘ra xodim uchun ish vaqtining me’yori haftasiga 40 soatdan ortiq bo‘lishi mumkin emasligi, olti kunlik ish haftasida har kungi ishning muddati 7 soatdan bo‘lsa, 5 kunlik ish haftasida esa har kungi ish vaqtining muddati 8 soat ekanligi haqida ham so‘z yuritildi. Agar markazning ish rejimi 5 kunlik ish haftasiga o‘tilsa, xodimlar uchun ish kuni 8 soatdan, professor-oqituvchilar uchun ish kuni 7 soat 12 daqiqadan iborat bo‘ladi va bu ish sifati va samaradorligini yanada oshishiga xizmat qilishi haqida ham bahs-munozaralar bo‘ldi. Ko‘rib chiqilgan masala yuzasidan yig‘ilishning barcha ishtirokchilari bir ovozdan qo‘llab-quvvatladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 207-moddasida ham “Besh kunlik va olti kunlik ish haftasida umumiy dam olish kuni yakshanbadir. Besh kunlik ish haftasidagi ikkinchi dam olish kuni jamoa shartnomasida yoki ichki mehnat tartib qoidalarida yoxud smenalarga bo‘linib ishlash jadvallarida, ular mavjud bo‘lmaganda esa mehnat shartnomasida belgilanishi” nazarda tutilgan. Shuningdek, “Mehnat kodeksi”ning 182, 185, 191, 207-moddalariga asosan xodimlarga qulay ish sharoitini yaratish hamda mehnat unumdorligini oshirish maqsadida ish vaqti rejimini ikkinchi dam olish kuni haftaning shanba kuni deb belgilanishi, ya’ni besh kunlik ish kuniga o‘tish haqidagi xulasalarni Ilmiy kengash a’zolari tomonidan ma’qullab berishlarini so‘raymiz.

Ushbu masala muhokama etilib Markaz Kehgashi

**QAROR QILADI:**

1. Markaz kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi A.Usmonovning 6-yanvarda o'tkazilgan "Markaz professor-xodimlari faoliyatining besh kunlik ish kuniga o'tkazish to'g'risida"gi jamoa yig'ilish xulosasi yuzasidan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Markaz kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan 6-yanvarda o'tkazilgan yig'ilish xulosasi Kengash a'zolari tomonidan ma'qullanganligi inobatga olinsin.

3. Mazkur qarorni tasdiqlash to'g'risida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligidan so'rash inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis B.Ashurova hamda yuriskonsult I.Doniyorov zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o'z zimmamga qoldiraman.

**Kengash raisi** **A.Ibragimov**
**Kengash kotibi** **D.Yunusova**

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 11-yanvarda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**
**Q A R O R I**

*2025-yil 11-yanvar* *1/4.1-son*
*Samarqand shahri*

**Malaka oshirish kursi tinglovchilari uchun "Rivojlanish va yuksalish daftari" loyihasini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida**

Markaz direktori A.Ibragimovning "Malaka oshirish kursi tinglovchilari uchun "Rivojlanish va yuksalish daftari" loyihasini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz direktori A.Ibragimov so'zga chiqdi: – Bu loyiha malaka oshirish kursi tinglovchilari uchun mo'ljalllangan. Bunda tinglovchilar kelgan kunidan boshlab oy yakunigacha tashkil etilgan tadbirlar, o'quv–metodik mashg'ulotlarining jarayoni, maqsadlar va kutilayotgan natijalar, kurs davomida nimalar o'rganishni kutayotganliklari, qaysi ko'nikmalar yoki bilimni mustahkamlamoqchi ekanliklari, o'quv kursi o'qituvchi faoliyatida qanday foyda berishi mumkinligi, yangi g'oyalar olinganligi, hamkorlik, refleksiya hamda qayta aloqa va boshqa jarayonlarni qayd etishadi. Tinglovchilar "Rivojlanish va yuksalish daftari"ini yuritish jarayonida olingan yangi ma'lumotlar orqali kasbiy faoliyatidagi bo'shliq va yutuqli tomonlarini ham aniqlab borishadi. Loyiha tizimli amaliyotga joriy etilsa, faoliyat, ta'lim sifati va samarasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. "Rivojlanish va yuksalish daftari" daftarini yuritilishini tashkil qilish va tinglovchilarga tushuntirish ishlarini olib borishga mas'ul etib kafedra mudirlari va guruh rahbarlari belgilanadi. Daftar yuritilishini muvofiqlashtirish va monitoringi ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i Z.Pardayev tomonidan olib boriladi. "Rivojlanish va yuksalish daftari"ining yuritilish holati har hafta juma kuni tahlil qilinadi.

Yuqoridagilar muhokama etildi Markaz Kengashi

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. Markaz direktori A.Ibragimovning "Malaka oshirish kursi tinglovchilari uchun "Rivojlanish va yuksalish daftari" loyihasini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Malaka oshirish kursi tinglovchilari uchun "Rivojlanish va yuksalish daftari" joriy yil yanvar oyidan boshlab amalga kiritilsin.

3. "Rivojlanish va yuksalish daftari" daftarini yuritilishini tashkil qilish va tinglovchilarga tushuntirish ishlarini olib borish bo'yicha mas'ul etib kafedra mudirlari va guruh rahbarlari belgilansin.

4. Ta'lim sifati nazorati bo'limiga (Z.Pardayev) daftar yuritilishini muvofiqlashtirish va monitoringini olib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Kengash raisi** **A.Ibragimov**

**Kengash kotibi** **D.Yunusova**

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 11-yanvarda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

**Q A R O R I**

*2025-yil 11-yanvar* *1/4.2-son*

*Samarqand shahri*

**Mahmudxo'ja Behbudiy asarlariga illyustratsiya chizish bo'yicha ijodiy tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"ni tasdiqlash to'g'risida**

Markaz direktori A.Ibragimovning "Mahmudxo'ja Behbudiy asarlariga illyustratsiya chizish bo'yicha ijodiy tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"ni tasdiqlash to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz direktori A.Ibragimov so'zga chiqdi: – 2025-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yillik yubileyi respublikamiz miqyosida keng nishonlanadi. Shu maqsadda Markazda adib asarlariga illyustratsiya chizish bo'yicha ijodiy tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi bo'yicha Nizom ishlab chiqilib, Nizomni tasdiqlab berish so'ralgan. Nizomda asosiy qoidalar, tanlovga qo'yiladigan talablar, tanlov g'oliblarini aniqlash, yakuniy qoidalarda tanlovning tashkil etilishi, tanlovning asosiy maqsadi, tanlov bosqichlari haqida yoritib o'tilgan.

Yuqoridagilar muhokama etildi va Markaz Kengashi

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. Markaz direktori A.Ibragimovning "Mahmudxo'ja Behbudiy asarlariga illyustratsiya chizish bo'yicha ijodiy tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"ni tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Mahmudxo'ja Behbudiy asarlariga illyustratsiya chizish bo'yicha ijodiy tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"i tasdiqlansin.

3. Tanlov Nizom asosida tashkil etilsin.

4. Tanlovni tashkil etishda Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi v.b. dotsenti K.Suvonova hamda metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodisti M. Ko'shayevlar mas'ul etib belgilansin.

5. Barcha kafedra mudirlari bo 'lim boshliqlariga:

- Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yubileyi munosabati bilan tanlov va turli tadbirlarni tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Kengash raisi** **A.Ibragimov**

**Kengash kotibi** **D.Yunusova**

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 11-yanvarda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

**Q A R O R I**

*2025-yil 11-yanvar* *1/4.3-son*

*Samarqand shahri*

**Markaz tinglovchilari o'rtasida "Kelajak o'qituvchisi" tanlovini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"ni tasdiqlash to'g'risida**

Markaz direktori A.Ibragimovning "Markaz tinglovchilari o'rtasida "Kelajak o'qituvchisi" tanlovini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"ni tasdiqlash to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz direktori A.Ibragimov so'zga chiqdi: – Markazida besh yilda bir marotaba ishdan ajralgan holda malaka oshirish kurslariga kelgan tinglovchilarni bilimini baholash, malaka oshirish kurslari oralig'ida tinglovchilarni o'zaro tajriba almashish tinglovchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish, pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish, tinglovchilarining professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Kelajak o'qituvchisi" tanlovini tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydigan Nizom ishlab chiqilib, tasdiqlash uchun Ilmiy-metodik kengashga taqdim etilgan. Nizom umumiy qoidalar, tanlovning maqsadi va vazifalari, tanlovni o'tkazish muddati va bosqichlari, tanlov yo'nalishlari va ishtirok etish tartibi, tanlov muddati va o'tkazish tartibi, tanlovning baholash mezonlari bandlaridan iborat bo'lib, tanlov bo'yicha barcha jarayonlarni o'z ichiga qamrab olgan. Tanlov Nizom talablari asosida tashkil etiladi va uni tashkillashtirishda Uzluksiz kasbiy ta'limni tashkil etish bo'limi boshlig'i H.Bekmirzayev mas'ul etib belgilanadi.

Yuqoridagilar muhokama etildi va Markaz Kengashi

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. Markaz direktori A.Ibragimovning "Markaz tinglovchilari o'rtasida "Kelajak o'qituvchisi" tanlovini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"ni tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Markaz tinglovchilari o'rtasida "Kelajak o'qituvchisi" tanlovini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom" tasdiqlansin.

3. Tanlov Nizom asosida tashkil etilsin.

4. Tanlovni tashkil etishda uzluksiz kasbiy ta'limni tashkil etish bo'limi boshlig'i H.Bekmirzayev mas'ul etib belgilansin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Kengash raisi** **A.Ibragimov**

**Kengash kotibi** **D.Yunusova**

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 11-yanvarda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

**Q A R O R I**

*2025-yil 11-yanvar* *1/4.4-son*
*Samarqand shahri*

**Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari tomonidan, hamkorlik memorandum va ustoz-shogird tizimi asosida tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida**

Markaz direktori A.Ibragimovning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari tomonidan, hamkorlik memorandum va ustoz-shogird tizimi asosida tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Kengash kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi: – Bugungi yig'ilishda ko'riladigan masalalardan har xil masalalar bo'limining 4.4 bandi markaz professor-o'qituvchilari tomonidan, hamkorlik memorandum va ustoz-shogird tizimi asosida tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida bo'lib, bu bo'yicha markaz professor-o'qituvchilari tomonidan, hamkorlik memorandum va ustoz-shogird tizimi asosida tayyorlangan uslubiy qo'llanmalar kengash tasdig'idan o'tkazish uchun qabul qilindi.

Markaz kafedralari professor-o'qituvchilari tomonidan, hamkorlik memorandum va ustoz-shogird tizimi asosida tayyorlangan nashr ishlariga ijobiy ichki va tashqi taqrizlar berilgan, tegishli kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinib kafedra bayyonnomalaridan ko'chirmalar va ma'lumotnomalar taqdim qilingan.

Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari tomonidan, hamkorlik memorandum va ustoz-shogird tizimi asosida tayyorlangan nashr ishlari

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | A.Xurramov | Maktab rahbarlari hamda pedagog xodimlarining kasbiy mas'uliyatini rivojlantiruvchi faktorlar | T.: M.Xalimov – Abdulla Avloniy nomidagi PMMI, Akademik faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i.<br>I.:K.Oqilova - Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi v.b. dotsenti. |
| 2 | U.Utanov | Zamonaviy o'qituvchi va unga qo'yilgan talablar (o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma) | T: D.M.Begmatova – Samarqand davlat chet tillar universiteti, Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi mudiri, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dosent.<br>I. K.Okilova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi, Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | R.Aminov | Olam taraqqiyoti tasavvurlari hamda umuminsoniy milliy qadriyatlar asosida shaxs fazilatlarini shakllantirish | T.: M.Mansurova – Samarqand shahar 5-umumta'lim maktab o'qituvchisi. I.: M.Raximkulova - Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi v.b. dotsenti. |
| 4 | S. Djalolova | Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy karyerasini loyihalashtirish ko'nikmasini o'rgatish | T.:E.Abdumannatov – O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). I.: K.Hasanova – Samarqand davlat universiteti Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi professori. |

Qo'lingizdagi qaror loyihasi bo'yicha fikr va savollar bo'lsa marhamat.

Yuqoridagilar muhokama etilib va Markaz Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. Pedagogika markazi Kengash kotibi D.Yunusovaning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari tomonidan, hamkorlik memorandum va ustoz-shogird tizimi asosida tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Pedagogika markazi professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan quyidagi nashr ishini **"Uslubiy qo'llanma"** sifatida chop etilishiga ruxsat etilsin:

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | A.Xurramov | Maktab rahbarlari hamda pedagog xodimlarining kasbiy mas'uliyatini rivojlantiruvchi faktorlar | T.: M.Xalimov – Abdulla Avloniy nomidagi PMMI, Akademik faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i I.:K.Oqilova - Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi v.b. dotsenti. |
| 2 | U.Utanov | Zamonaviy o'qituvchi va unga qo'yilgan talablar (o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma) | T: D.M.Begmatova – Samarqand davlat chet tillar universiteti, Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi mudiri, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dosent I. K.Okilova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi, Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) |

3. Samarqand shahar 5-umumta'lim maktab direktori R.Aminovning hamkorlik memorandum asosida tayyorlangan nashr ishi **"Uslubiy qo'llanma"** sifatida chop etilishiga ruxsat etilsin:

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | R.Aminov | Olam taraqqiyoti tasavvurlari hamda umuminsoniy milliy qadriyatlar asosida shaxs fazilatlarini shakllantirish | T.: M.Mansurova – Samarqand shahar 5-umumta'lim maktab o'qituvchisi. I.:M.Raximkulova - Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi v.b. dotsenti. |

4. A.Ibragimovning ilmiy rahbarligidagi Samarqand davlat universiteti tayanch-doktoranti S. Djalolovaning tayyorlagan nashr ishi **"Uslubiy qo'llanma"** sifatida chop etilishiga ruxsat etilsin:

| | | | |
|---|---|---|---|
| 4 | S. Djalolova | Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy karyerasini loyihalashtirish ko'nikmasini o'rgatish | T.:E.Abdumannatov – O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). I.: K.Hasanova – Samarqand davlat universiteti Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi professori. |

5. Pedagogika markazning barcha kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlariga:

- Markaz professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan uslubiy qo'llanmalarni nashr me'yorlari asosida tayyorlash hamda chop etishni tashkillashtirish;

- nashr etilgan metodik ishlarni Pedagogik markazning ARMga belgilangan (uslubiy qo'llanma 15 ta) nusxasini taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

6. Nashr etilgan metodik ishlarni Pedagogik markaz saytiga joylashtirish axborot resurs markazi zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror ijrosi nazorati akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S. Murodov zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi** **A.Ibragimov**

**Kengash kotibi** **D.Yunusova**

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 11-yanvarda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

**QARORI**

*2025-yil 11-yanvar* *1/4.5-son*

*Samarqand shahri*

**Rivojlanish va yuksalish majmuaviy tadbirlarni tartibini tasdiqlash to'g'risida**

Markaz direktori A.Ibragimovning "Rivojlanish va yuksalish majmuaviy tadbirlarni tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz direktori A.Ibragimov so'zga chiqdi: – Markazining 2025-yilga mo'ljallangan ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirish maqsadida "Rivojlanish va yuksalish majmuaviy tadbirlarni tartibini tasdiqlash to'g'risida" Nizom ishlab chiqilib, tasdiqlash uchun Ilmiy-metodik kengashga taqdim etilgan. Nizomda Rivojlanish va yuksalishni qo'llab-quvvatlovchi majmuaviy tadbirlar belgilangan hafta kunlarida "Kafedralar va bo'limlar seminari kuni", "Kutubxonaga tashrif kuni", "Hamkorlik tajribalari kuni", "Jamoani jipslashtirish va ruhlantirish kuni", "Kasbiy rivojlantirish tadbirlari kuni" nomlarida tashkil qilinishi, tadbirlarni ko'tarinki ruhda tashkil etish va umumta'lim maktablariga transformatsiyasini ta'minlash talablari yoritilgan. Tadbirlar dasturlari, taqdimotlar, zaruriy jihoz, o'quv-metodik va tarqatma materiallarning talab darajasida tayyorlanganligini nazoratdan o'tkazish, jarayonni konsultativ qo'llab-quvvatlash va ilmiy-metodik kuzatuvni amalga oshirish vazifalari alohida qayd etib o'tilgan. Tadbirlarni tashkillashtirishga mas'ul etib fanlarni rivojlantirish bo'limi boshlig'i M.Fayziyeva belgilanadi.

Yuqoridagilar muhokama etildi va Markaz Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. Markaz direktori A.Ibragimovning "Rivojlanish va yuksalish majmuaviy tadbirlarni tartibini tasdiqlash to'g'risidagi Nizom"ni tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Rivojlanish va yuksalish majmuaviy tadbirlarni tartibini tasdiqlash to'g'risidagi Nizom"i tasdiqlansin.

3. Tadbirlar Nizom asosida tashkil etilsin.

4. Tadbirlarni tashkillashtirishda mas'ul etib fanlarni rivojlantirish bo'limi boshlig'i M.Fayziyeva belgilansin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Kengash raisi** **A.Ibragimov**

**Kengash kotibi** **D.Yunusova**

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 11-yanvarda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

**Q A R O R I**

*2025-yil 11-yanvar* *1/4.6-son*

*Samarqand shahri*

**Markaz budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi tushumini ko'paytirish va 2025-yilga xarajatlar smetasini tasdiqlash to'g'risida**

Markaz Moliya-iqtisod va buxgalteriya bo'limi bosh hisobchisi B.Norovning "Markaz budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi tushumini ko'paytirish va 2025-yilga xarajatlar smetasini tasdiqlash to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Moliya-iqtisod va buxgalteriya bo'limi bosh hisobchisi B.Norov so'zga chiqdi: – Pedagogik markaz professor-o'qituvchi va xodimlarini oylik ish haqlari, yillik va oylik ustamalarini, rahbarlar uchun ajratilgan 10 foizli rag'batlantirish mablag'larini, 4-guruh komunnal to'lovlar, moddiy texnik bazalari va asosiy vositalarni sotib olish hamda barcha markaz faoliyatiga taalluqli bo'lgan boshqa harajatlarni maxsus hisob raqam smetasida ko'rsatish.

Markaz maxsus hisob raqamiga 2025-yil uchun tuzilgan yillik jami harajatlar smetasi daromadlari 2428188.0 ming so'mga, harajatlari 2428188.0 ming so'mga tasdiqlansin.

Yuqoridagilar muhokama etildi va Markaz Kengashi

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. Markaz Moliya-iqtisod va buxgalteriya bo'limi bosh hisobchisi B.Norovning "Markaz budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi tushumini ko'paytirish va 2025-yilga xarajatlar smetasini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Markaz Moliya-iqtisod va buxgalteriya bo'limi bosh hisobchisi B.Norovga:

-Markaz maxsus hisob raqamiga mablag' topish va tushirish uchun kerakli chora va tadbirlarni ishlab chiqish;

- Pedagogik markaz professor-o'qituvchi va xodimlarini oylik ish haqlari, yillik va oylik ustamalarini, rahbarlar uchun ajratilgan 10 foizli rag'batlantirish mablag'larini, 4-guruh komunnal to'lovlar, moddiy texnika bazalari va asosiy vositalar sotib olish hamda barcha markaz faoliyatiga taalluqli bo'lgan boshqa harajatlarni maxsus hisob raqam smetasida ko'rsatish.

3.Markaz maxsus hisob raqamiga 2025-yil uchun tuzilgan yillik jami harajatlar smetasi daromadlari 2428188.0 ming so'mga, harajatlari 2428188.0 ming so'mga tasdiqlansin.

4. Mazkur qaror ijrosi moliya-iqtisod va buxgalteriya bo'limi bosh hisobchisi B.Norov zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Kengash raisi** **A.Ibragimov**

**Kengash kotibi** **D.Yunusova**

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 11-yanvarda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

**Q A R O R I**

*2025-yil 11-yanvar* *1/4.7-son*

*Samarqand shahri*

**Hududiy markaz professor-o'qituvchilari va xodimlarining lavozim maoshiga nisbatan ustama belgilash to'g'risida**

Inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis B.Ashurovaning "Hududiy markaz professor-o'qituvchilari va xodimlarining lavozim maoshiga nisbatan ustama belgilash to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis B.Ashurova so'zga chiqdi: – Bugungi kunda Pedagogik markaz bo'limlarida faoliyat ko'rsatayotgan bo'lim boshliqlari va xodimlarini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy muhofaza qilish talab etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-apreldagi "Xalq ta'limi tizimidagi muassasalarning budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 344-sonli qarorida Xalq ta'limi tizimidagi muassasalarning budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan. Mazkur Nizomda jamg'arma mablag'laridan foydalanish tartibi belgilab berilgan.

Bo'limlarda faoliyat ko'rsatayotgan bo'lim boshliqlari va xodimlarining mehnat faoliyati natijalarini inobatga olib, ishlarni tashkil qilish sohasidagi ko'rsatkichilari va yutuqlarini moddiy jihatdan rag'batlantirish va har oylik ish haqiga budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan ustama belgilash kelgusida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bo'limlar tomonidan kiritilgan bildirgi asosida budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan boshqaruv apparati, hisobxona, Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi laboranti, xo'jalik bo'limi bo'lim boshlig'i va xodimlarining oylik ish haqlariga ustama belgilash lozim. Bu bilan xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yaxshilanib, mehnat unumdorligining oshishiga erishish mumkin:

| | Tuzilmaviy bo'limlar va lavozimlar nomi | Oylik ish haqiga nisbatan belgilangan ustamalar % | Xodimning F.I.O. |
|---|---|---|---|
| | **Boshqaruv apparati** | | |
| 1. | Yuristkonsult | 50% | Doniyorov Ibrohim Eshquvvatovich |
| 2. | Bosh hisobchi | 10% | Norov Bobir Baxriddinovich |
| 3. | Kotiba ish yurituvchi | 50% | Mo'minova Zarnigor Kurbon qizi |
| 4. | Kotiba ish yurituvchi | 50% | Abdixakimova Dilafruz Safarboyevna |
| 5. | Laborant | 50% | Xayrullayeva Farangiz Baxtiyor qizi |
| | **Xo'jalik ishlari bo'limi** | | |
| 6. | Bo'lim boshlig'i | 100% | Abduqahhorov Sirojiddin |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | Arslonovich |
| 7. | G‘aznachi | 100% | Xamedova Zebo Xoshimovna |
| 8. | Duradgor | 50% | Mustafayev Axmat Aliyevich |
| 9. | Santexnik | 50% | Seytveliyev Eldar Lemarovich |
| 10. | Elektrik | 50% | Salimov Alisher Abdujalilovich |
| 11. | Santexnik | 50% | Kurbanov Shadiyar Toshpulatovich |
| 12. | Farrosh | 40% | Maxmaziyayeva Lobar Sadiqovna |

**ESHITILDI:** Ilmiy-metodik kengash raisi A.Ibragimov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 16-avgustdagi 1213-sonli Farmoni, Moliya vazirligining 1995-yil 8-sentabrdagi 98-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Budjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish maxsus fondi to‘g‘risidagi Nizom”ga asosan Pedagogik markaz xodimlarining asosiy lavozim maoshlariga ustamalar belgilash maqsadida budjet va budjetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moddiy rag‘batlantirish fondi uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida quyidagi pedagogika markazi ishchi xodimlarining asosiy oylik maoshlariga ustamalar belgiladi:

| **Tuzilmaviy bo‘limlar va lavozimlar nomi** | **Ustamalar %** | **Xodimning F.I.O.** |
|---|---|---|
| **Boshqaruv apparati** | | |
| Direktor o‘rinbosari | 20% | Murodov Sarvar Saydullo o‘g‘li |
| Direktor o‘rinbosari | 20% | Xurramov Anvar Vafokulovich |
| Yuristkonsult | 50% | Doniyorov Ibrohim Eshquvvatovich |
| Kotiba ish yurituvchi | 50% | Abdixakimova Dilafruz Safarboyevna |
| Kotiba ish yurituvchi | 50% | Mo‘minova Zarnigor Kurbon qizi |
| **Aniq va tabiiy fanlarni o ‘qitish metodikasi kafedrasi laboranti** | | |
| Laborant | 50% | Xayrullayeva Farangiz Baxtiyor qizi |
| **Xo‘jalik ishlari bo‘limi** | | |
| Bo‘lim boshlig‘i | 50% | Abduqahhorov Sirojiddin Arslonovich |
| G‘aznachi | 50% | Xamedova Zebo Xoshimovna |
| Duradgor | 50% | Mustafayev Axmat Aliyevich |
| Santexnik | 50% | Seytveliyev Eldar Lemarovich |
| Elektrik | 50% | Salimov Alisher Abdujalilovich |
| Komendant | 50% | G‘ulomov Ilxom Musurmonovich |

| | | |
|---|---|---|
| Santexnik | 50% | Kurbanov Shadiyar Toshpulatovich |
| Qorovul | 40% | Alimov Fayzulla Isanovich |
| Qorovul | 40% | Atoyev Ziyoddillo Yusupovich |
| Qorovul | 40% | Xarinov Ibragim Nizomovich |
| Qorovul | 40% | Raximov Komiljon Eshmonovich |
| Qorovul | 40% | Sultonov Djumakul Soliyevich |
| Yotoqxona mudiri | 50% | Yuldashova Moxinur Xolmurodovna |
| Farrosh | 50% | Maxmaziyayeva Klara Sadikovna |
| Hovli supuruchi | 45% | Mamadaliyeva Komila Djabborovna |
| Farrosh | 45% | Arslanova Zarima Enverovna |
| Farrosh | 45% | Gulyamova Jamila Shodiyevna |
| Farrosh | 45% | Muxtorova Nazira Mo'minovna |
| Farrosh | 50% | Nabiyeva Barno Abduraxmonovna |
| Farrosh | 50% | Muminova Zamira Murtazayevnaning |
| Farrosh | 50% | Raxmonova Navbaxor Abduvaxidovna |
| Farrosh | 45% | Sharipova Zaynab Karimovna |
| Farrosh | 45% | G'afforova Malika Pardakulovna |
| Farrosh | 45% | Shermuxammedova Mayram Xaitovna |

**Kengash raisi A.Ibragimov** – ushbu masala bo'yicha savollar, fikrlar bo'lsa, marhamat.

Yuqoridagilar muhokama etildi va Markaz Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. Inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis B.Ashurovaning "Hududiy markaz professor-o'qituvchilari va xodimlarining lavozim maoshiga nisbatan ustama belgilash to'g'risida"gi axboroti ijro uchun qabul qilinsin.

2. Budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan asosiy lavozim maoshlariga ustama belgilanadigan ishchi xodimlar ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Markaz xodimlarining asosiy lavozim maoshlariga budjet va budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan moddiy rag'batlantirish fondi uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan belgilangan ustamalar 3-yanvardan 31-mart hamda 30-iyunga qadar to'lanishi belgilab qo'yilsin.

4. Pedagogik markaz xodimlarining oilaviy ahvolini yaxshilash, moddiy jihatdan qiynalib qolganlarga yordam ko'rsatish, sog'ligi holatini tiklash, ko'p farzandli xodimlarga ijtimoiy yordam berish va boshqa moddiy ko'makka muhtoj hamda mehnat faoliyatida alohida namuna ko'rsatgan xodimlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moddiy rag'batlantirib borilsin.

5. Mehnat faoliyati natijalarini inobatga olib, ishlarni tashkil qilish sohasidagi ko'rsatkichlari va yutuqlarini moddiy jihatdan rag'batlantirish va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan boshqaruv apparati, hisobxona, Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi laboranti, xo'jalik ishlari bo'lim boshlig'i va xodimlarining har oylik ish haqlariga ustama belgilansin.

6. Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari (S.Murodov) hamda inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis (B.Ashurova)ga:

6.1.Xodimlarning arizasi asosida ularning oilaviy ahvolini o'rganish, moddiy jihatdan qiynalib qolganlarni aniqlash, sog'ligi holatini o'rganish, ko'p farzandli xodimlarga ijtimoiy yordam berish va boshqa moddiy ko'makka muhtoj xodimlarga moddiy yordam berish hamda mehnat faoliyatida alohida namuna ko'rsatgan xodimlarni moddiy rag'batlantirish bo'yicha taklif kiritib borish;

6.2.Moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning amaldagi chora-tadbirlari samaradorligini tahlil qilish, ular xodimlarning mehnat va ijtimoiy faolligini oshirishga ta'sirini kuchaytirish yuzasidan takliflar hamda tavsiyalar kiritish, rag'batlantirishning yangi turlarini ishlab chiqish;

6.3.Mehnat faoliyati natijalarini inobatga olib, ishlarni tashkil qilish sohasidagi ko'rsatkichlari va yutuqlarini moddiy jihatdan rag'batlantirish va har oylik ish haqiga budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan boshqaruv apparati, hisobxona, Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi laboranti, xo'jalik bo'limi bo'lim boshlig'i va xodimlarining har oylik ish haqlariga ustama belgilash bo'yicha markaz direktori buyrug'ining loyihasini tayyorlash va tasdiqqa kiritish vazifalari yuklatilsin.

7.Mazkur qaror ijrosi markaz akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodov zimmasiga yuklansin.

8.Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Kengash raisi** **A.Ibragimov**

**Kengash kotibi** **D.Yunusova**